



Ecological Culture as Reflected in Uzbek Folk Proverbs

Malika Turaqulova

first-year master's student specializing in Folkloristics and Dialectology at Andijan

State University

Abstract. This article analyzes the expression of ecological culture in Uzbek folk proverbs, the people's views on nature conservation, and the role of ecological values in oral literature. It examines the reflection of natural elements such as land, water, trees, and wildlife in proverbs, as well as the moral and educational guidance they convey and the factors influencing the formation of ecological awareness. Additionally, the article highlights the significance of the ecological values embodied in these proverbs for contemporary ecological education and upbringing.

Keywords: ecological culture, Uzbek proverbs, nature, folk wisdom, environmental education, paremiology, nature conservation, wastefulness.

O'zbek xalq maqollarida ekologik madaniyatning aks etishi

*Andijon davlat universiteti Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi
1-bosqich magistranti*

To'raqulova Malika Yoqub qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida ekologik madaniyatning ifodalanishi, tabiatni muhofaza qilishga oid xalq qarashlari va ekologik qadriyatlarning og'zaki ijoddagi o'rni tahlil qilinadi. Maqollarda yer, suv, daraxt, hayvonot dunyosi kabi tabiat unsurlarining aks etishi, ular orqali berilgan axloqiy-tarbiyaviy ko'rsatmalar, ekologik ongning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, maqollarda mujassam ekologik qadriyatlarning bugungi ekologik ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, o'zbek maqollari, tabiat, xalq donishmandligi, ekologik tarbiya, paremiologiya, tabiatni muhofaza qilish, isrof.

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolar — suv tanqisligi, havoning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Ekologik ongni shakllantirish va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish nafaqat texnik, balki madaniy-ma'naviy yondashuvni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan,





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

xalq og‘zaki ijodi, xususan, maqollar xalqning asrlar davomida shakllangan tabiat haqidagi qarashlarini ifodalab, ekologik ongning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalq maqollarida yer, suv, daraxt, o‘simlik, mehnat va yashil olamning qadrlanishi, ularga ehtiyotkor munosabat ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular hozirgi ekologik tarbiyada samarali manba bo‘la oladi.

Tabiatni qadrlash va himoya qilish haqida xalqimiz orasida keng tarqalgan

Yer – xazina, suv – gavhar.

Suv-zar, suvchi-zargar.

Suvning qadri – suv ichganga ma‘lum,

Birni kessang-o‘nni ek.

Suv-hayot manbai.

Daraxtdan meva olaman desang, niholligidan parvarish qil

kabi maqollar insonning tabiat oldidagi mas‘uliyatini ifodalaydi. Ushbu maqollar nafaqat nazariy, balki amaliy hayotiy tajribaga tayangan ekologik qarash sifatida shakllangan. Yerning xazina sifatida tasvirlanishi tabiatning bebaho ne‘mat sifatida qadrlashga undaydi. Shu bilan birga, daraxt, suv va hayvonot dunyosining ahamiyati haqida berilgan maqollar odamlarni tabiatni muhofaza qilishga chaqiradi.

Maqollarda ekologik tarbiya bilan bog‘liq yana bir muhim jihat – isrofga qarshi kurashdir.

Tomchi suvda tol ko‘karar.

Non ham non, ushog‘i ham non.

Suvni bog‘laguncha, ariq och.

Don ayagan donga yetar, non ayagan-nonga.

Tejog‘lik ish-bejog‘lik ish.

Suv ham qattiq yerda to‘xtab turar.

Ozni beja, ko‘pni teja.

Suv qatراسi-dur qatراسi





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

kabi hikmatlar insonni mehnatsevarlikka, ehtiyotkorlikka, ne'matning qadriga yetishga chaqiradi. Bu qarashlar ekologik madaniyatning asosiy tamoyillari bilan mos keladi va yosh avlodni tabiiy resurslarga ehtiyotkor bo'lishga o'rgatadi.

Maqollarda tabiatga zarar yetkazmaslik tamoyili ham chuqur aks etadi. Masalan,
Suvni bog'laguncha, ariq och.

Suv ichadigan qudug'ingga tupurma.

Suvni ich, chashmani bulg'ama

kabi maqollar ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Maqollar orqali tabiat hodisalarini kuzatish, ob-havoga qarab xulosa chiqarish, tabiat bilan moslashib yashash madaniyati shakllangan.

Aziz momo olti kun,

Qahri kelsa — yetti kun.

Aziz momo olti kun,

Qaltirasa — qatti kun,

Sakransa — sakkiz kun,

To'qransa — to'qqiz kun,

O'qransa — o'n kun.

Asad kirsas, suv oqarar.

Yoz yomg'iri yondan o'tar,

Qish yomg'iri — jondan.

Yoz mevasi — qish xazinasi.

Yoz qoqisi — qishga dori.





JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

Yoz harakati — soz harakat.

Yozgi harakat — kuzgi barakat.

Yozda boshi pishmaganning,
Qishda oshi pishmas.
Yolqitsa ham, yog' yaxshi,
Yondirsa ham, yoz yaxshi.

Yomg'ir — ekinning joni.

Kun g'amini sahar ye,
Yil g'amini bahor ye.

Laylak kelmay, yoz bo'lmas,
Qirg'iyak chopmay, kuz bo'lmas.

Laylak kelsa — yorug' yoz,
Turna kelsa — tunuq yoz.

Safar oyi — xatar oyi.

Toza havo — dardga davo





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

kabi maqollar xalqning ekologik kuzatuvchanligini ifodalaydi. Shu tarzda, xalq og'zaki ijodi nafaqat axloqiy, balki amaliy ekologik bilim manbai sifatida ham xizmat qiladi.

O'zbek folklorini o'rganishda H. Zarifov, M. Afzalov, B. Sarimsoqov, T. Mirzayev, O. Safarov, O. Madayev kabi o'zbek olimlarning ilmiy tadqiqotlarida xalq maqollarining janr xususiyatlari, g'oyaviy-badiiy mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda maqollar xalqning tabiatga munosabati, yer-suvni asrash, mehnat va tejamkorlik bilan bog'liq qarashlarini ifodalovchi vosita sifatida talqin etiladi. Chet el olimlaridan N.P. Ostroumov ham o'zbek maqolshunosligida o'zining ilmiy va nazariy qarashlari bilan alohida o'rin tutadi.

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda tabiat va ekologiya bilan bog'liq leksik birliklar, ramziy obrazlar hamda maqollarning semantik qatlamlari tahlil qilingan bo'lsa-da, ekologik madaniyat masalasi ko'pincha umumiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar doirasida yoritilgan. Shu jihatdan, o'zbek xalq maqollarida ekologik madaniyatni alohida va tizimli ravishda tadqiq etish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Xulosa.

O'zbek xalq maqollarida ekologik ong juda boy va rang-barang shakllarda namoyon bo'ladi. Ularda tabiatning muqaddasligi, yer-suvning qadri, daraxt va hayvonotga mehr, tejamkorlik va isrofdan tiyilish kabi fikrlar qadimdan xalq dunyoqarashining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Bugungi ekologik muammolar sharoitida ushbu maqollar nafaqat madaniy meros, balki ekologik tarbiya vositasi sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xalq donishmandligiga tayanish ekologik madaniyatni yuksaltirish, yoshlarni tabiatni asrash ruhida tarbiyalashda muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sarimsoqov B., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi".-T.: O'qituvchi, 1990.
- 2.O.Madayev "O'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent "Mumtoz so'z"2010.
- 3."O'zbek xalq maqollari, 1-jild"-T.: O'zbekiston SSR "Fan",1987.
- 4."O'zbek xalq maqollari, 2-jild"-T.: O'zbekiston SSR "Fan",1988.
5. Mirzayev T. So'zdan so'zning farqi bor | O'zbek xalq maqollari.-T.:Sharq,2016.

